

**JISMONIY SHAXSGA BANK KARTASINI OCHISH
VA ULARGA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA
OMMAVIY OFERTA**

AT "Aloqabank" (bundan buyon matnda "**Bank**" deb yuritiladi) ushbu bilan quyida ko'rsatilgan shartlar asosida Oferta tuzishni taklif qiladi va ushbu Ofertani akseptlash Ofertaning tuzilishi ekanligi va yuridik ahamiyatga ega ekanligini anglatadi:

I. ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR

1.1. Mazkur Ofertada quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi.

- **Bank** – Aksiyadorlik tijorat "Aloqabank";
- **Foydalanuvchi** – Bankning ofisi, internet tarmog'idagi www.aloqabank.uz korporativ veb-sayti yoki "ZOOMRAD" ilovasi orqali bank kartasini ochish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha murojaat qilgan, Ofertani akseptlovchi jismoniy shaxs;
- **Bank kartasi** – o'z egasiga bank hisobvarag'i orqali bank kartasining amal qilish muddati doirasida, naqd pulsiz shaklda hisob-kitoblarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi to'lov kartasi;
- **Bank virtual kartasi** – Foydalanuvchi Internet tarmog'ida to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan jismonan mavjud bo'lmagan to'lov kartasi. Virtual karta to'lovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan to'lov kartasining rekvizitlari ma'lumotlaridan iboratdir. Virtual karta tokenizatsiya qilingan taqdirda, undan kontaktsiz to'lov texnologiyasini qo'llab-quvvatlaydigan savdo va xizmat ko'rsatish korxonasida tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish maqsadida foydalanilishi mumkin;
- **Qo'shimcha bank kartasi** – Foydalanuvchining xohishiga ko'ra, o'z nomiga yoki uning ishonchli vakili (oila a'zolari) nomiga, operatsiyalarni oldin ochilgan bank karta hisobvarag'idagi pul mablag'lari doirasida amalga oshirish uchun chiqarilgan bank kartasi (o'zining alohida hisobvarag'iga ega bo'lmagan bank kartasi);
- **Xalqaro bank karta** – Bank emitent tomonidan emissiya qilingan "VISA" va MasterCard bank kartasi egasiga undagi mablag'lar doirasida bank hisobvarag'i orqali naqd pulsiz hisob- kitoblarni amalga oshirish va hisobvaraqdan naqd pul olish imkonini beruvchi xalqaro to'lov vositasi;
- **Kobeydj bank karta** – Bank emitent tomonidan emissiya qilingan "UzCard"/"UnionPay" to'lov tizimlarining infrastrukturasidan foydalanib, bank kartasi egasiga undagi mablag'lar doirasida bank hisobvarag'i orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish va hisobvaraqdan naqd pul olish imkonini beruvchi xalqaro to'lov vositasi;

- **Bank kartasi hisobvarag'i** – bank kartasi vositasida undagi pul mablag'larini tasarruf etish mumkin bo'lgan bank hisobvarag'i;
- **Bank kartasining blokirovkasi** – xalqaro va mahalliy to'lov tizimining qoidalariga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarida hamda bank kartalarini amal qilishini to'xtatish yoki uni bekor qilish bo'yicha Bank tomonidan ko'rilgan chora;
- **To'lov tizimi** – tovar, ish (xizmat) uchun naqd pulsiz shaklda to'lovlarni amalga oshirish hamda naqd pul yechish imkonini beruvchi mahalliy va xalqaro to'lovlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan tizim (Masalan: **“Uzcard”, “Humo”, “Visa”, “UnionPay” va boshqa**);
- **Bank tarifi** – Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan, bank kartalari orqali bank operatsiyalari amalga oshirilganda, bank kartalarini muomalaga chiqarishda va ularni yangisiga almashtirib berishda undiriladigan komission haq ;
- **Minimal balans qoldig'i (Sug'urta depoziti)** – Bank karta hisobvarag'ida saqlanishi majburiy bo'lgan pul mablag'larining minimal qoldig'i;
- **Bankdan tashqari to'lov tizimi** – To'lov tizimi belgilari va uning qoidalarini belgilovchi va bunday turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxslar (**“CLICK”, “PAYME”, “PAYNET” va b.**);
- **Masofaviy bank xizmatlari (MBX)** */Faqat xalqaro kartalar uchun/-* Foydalanuvchi tomonidan masofadan turib telekommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda uzatiladigan (olingan) elektron almashinuvlar asosida ko'rsatiladigan bank xizmatlari to'plami, jumladan:
 - **SMS-banking** – Bank kartasi vositasida amalga oshirilgan to'lovlarni nazorat qilish tizimi. Online tarzda amalga oshirilgan har bir to'lov va kartaning joriy qoldig'i bo'yicha karta egasining telefoniga SMS-xabarnomasi keladi;
 - **Internet to'lov** – Bank kartasi egasiga Internet tarmog'i orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish imkonini taqdim etish;
 - **Ushlab turish (Hold)** – Bank kartasi orqali muvafaqqiyatli amalga oshirilgan operatsiya va komissiya summasini muzlatish;
 - **Aksept** – Ofertaning to'liq va so'zsiz qabul qilinishi. Ofertani akseptlash Oferta tuzilganigini vujudga keltiradi va huquqiy ahamiyatga ega;
 - **O'zini o'zi band qilgan shaxslar** — mehnat daromadi olishga yo'naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish bo'yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinmagan, mehnat staji hisobga olinishi va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar;
 - **O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tganligi to'g'risida ma'lumotnoma** — o'zini o'zi band qilgan shaxsga maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabinet orqali yuboriladigan va fuqaroning o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatidagi mehnat maqomini belgilab beradigan elektron shakldagi ma'lumot;

- **O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning ma’lumotlar bazasi (registr)** — “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksida o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan o‘zini o‘zi band qilganlar to‘g‘risidagi o‘zaro bog‘liq axborotni saqlash, o‘zgartirish va qayta ishlash uchun mo‘ljallangan tizimlashtirilgan ma’lumotlar bazasi.

II. OFERTANING MAZMUNI

2.1. Foydalanuvchiga bank hisobvarag‘ini (milliy valyuta va chet el valyutasida) ochish, bank kartalarini chiqarish, shuningdek ushbu Oferta va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bank kartasi hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar Oferta mazmuni bo‘lib hisoblanadi.

III. OFERTANING UMUMIY SHARTLARI

3.1. Ushbu Ofertani akseptlovchi Foydalanuvchilar:

3.1.1. bank kartasini ochish va xizmat ko‘rsatilishidan manfaatdorligini;

3.1.2. Ofertada ko‘zda tutilgan barcha shartlar va ma’lumotlar bilan tanishib chiqqanini;

3.1.3. o‘zlari haqidagi ma’lumotlarni oshkor qilmasdan bank kartasini ochish va ularga xizmat ko‘rsatish mumkin emasligini tushungan holda Bankka kerakli ma’lumotlarni taqdim etish istagini bildirganligini;

3.1.4. Taraflarning bank kartasini ochish va ularga xizmat ko‘rsatilishi bilan bog‘liq bo‘lgan harakati, Bankning ofisi, internet tarmog‘idagi korporativ veb-sayti (www.aloqabank.uz) yoki “Zoomrad” ilovasi orqali amalga oshirilishini bilishini;

3.1.5. Bankdan yozma hujjatlar Foydalanuvchiga Bank ofisidan yoki elektron shaklda Shaxsiy kabinetda taqdim etilishi mumkinligini va hujjatlarni olishning bunday shaklini o‘zi uchun mumkin deb hisoblashini;

3.1.6. Oferta bilan tanishib, Ofertada taklif etilgan barcha shartlarni tushunganligini bildiradi.

3.2. Ushbu Oferta bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalar yuzasidan 71-230-77-77 telefoni orqali, info@aloqabank.uz elektron pochta manzili orqali bog‘lanish mumkin.

IV. OFERTANI TUZISH (OFERTANI AKSEPTLASH) TARTIBI

4.1. Ofertani akseptlash Foydalanuvchi tomonidan elektron xabar (“Zoomrad” ilovada maxsus belgi qo‘yish) yoki yozma ariza berish orqali amalga oshiriladi.

4.2. Aksept axborot tizimi tomonidan avtomatik aniqlanadigan Bank tomonidan uni olinganligi haqida xabar yuborilgan yoki foydalanuvchi ariza bergan paytidan boshlab olingan deb hisoblanadi.

V. AKSEPTNI BEKOR QILISH TARTIBI

5.1. Aksept olinganidan keyin Bank Foydalanuvchiga aksept olinganligi haqidagi xabarni yuboradi.

5.2. Aksept Foydalanuvchining aksept olinganligi haqidagi xabarni olganidan keyin bekor qilinishi (chaqirib olinishi) mumkin emas.

VI. BANK KARTASINI OCHISH VA ULARGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTLARI

6.1. Foydalanuvchi tomonidan bank kartasini ochish yuzasidan Bankning ofisi , www.aloqabank.uz korporativ veb-sayti yoki "Zoomrad" ilovasi orqali murojaat qilingan kundan so'ng, keyingi ish kunidan kechiktirmay, foydalanuvchi nomiga bank karta hisobvarag'i hamda 3 (uch) kunlik muddatda bank kartasi ochiladi.

6.2. "Zoomrad" ilovasi orqali bank kartasiga buyurtma berganda to'lov 3 (uch) kunlik muddatda to'lanmasa karta ochish buyurtmasi avtomatik ravishda bekor qilinadi.

6.3. Bank karta hisobvarag'i ochilib, bank kartasi chiqarilganidan keyin, Bank kartasi Foydalanuvchisi Bankka kelgan holda yoki kuryerlik xizmati orqali uning shaxsi identifikatsiya qilinganidan keyin shaxsan o'ziga topshiriladi.

6.4. Bank virtual kartasi chiqarilgandan so'ng, dastur tomonidan avtomat tarzda Foydalanuvchining "Zoomrad" mobil ilovasi akkauntiga biriktiriladi.

6.5. Foydalanuvchiga bank kartalari to'lov tizimlari qoidalariga muvofiq ravishda taqdim etiladi. Bunda Bankning ofisi orqali "Front-face Dashboard" bank platformasida Foydalanuvchini bank kartasi bilan birgalikda suratga olgan holda yuklash orqali taqdim etiladi.

6.6. Bank kartasini kuryerlik xizmati orqali yetkazib berish, qo'shimcha haq evaziga amalga oshiriladi. Qo'shimcha haqning miqdori Bank tariflarida belgilanadi va u Bankning maxsus saytlarida joylashtirib boriladi.

6.7. Bank kartasi Ofertaning 6.1. -bandida belgilangan muddatda ochilganidan keyin, quyidagi muddatlarda yetkazib beriladi:

6.7.1. "Humo", "Uzcard" va "Kobeydj" bank kartalari 3 (uch) bank ish kuni ichida;

6.7.2. "Visa" - Toshkent shahri va Toshkent viloyatlarida 3 (uch) bank ish kunida/ Respublikaning boshqa viloyatlariga 5 (besh) bank ish kuni ichida.

6.8. Bank kartasining muddati, kartaning old tomonida ko'rsatiladi. (Masalan: 03/26. - 31 mart 2026 yil 23:59 qadar.)

6.9. Bank kartalari mazkur Ofertada, to'lov tizimlarining qoidalarida, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va Bankning ichki qoidalarida belgilangan tartibda Bank tomonidan yoki vakolatli organ tomonidan bloklanishi mumkin.

6.10. Bank kartasi Foydalanuvchi tomonidan uning yozma murojaati/Bankning Kontakt-markazi yoki masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda bloklanishi mumkin.

6.11. To'lov tizimlarining qoidalariga binoan bank karta hisobvarag'ida saqlanishi majburiy bo'lgan pul mablag'larining minimal qoldig'i shakllantiriladi.

6.12. Foydalanuvchi bank kartasidan foydalanish qoidalari va yo'riqnomalariga amal qiladi.

6.13. Agarda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, Foydalanuvchi nomiga qo'shimcha bank kartasini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish ushbu Oferta bilan tartibga solinadi.

6.14. Bank kartalari bilan bog'liq shubhali (frod) operatsiyalarini oldini olish hamda firibgarlik sxemalarini kamaytirish maqsadida, 1 (bir) nafar Foydalanuvchi nomiga O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha banklardan jami 20 (yigirma) dona bank kartasi (virtual va kobeydjing kartalarni inobatga olgan holda), shuningdek Bankda bir nafar Foydalanuvchi nomiga 5 (besh) dona bank kartasi (virtual va kobeydjing kartalarini inobatga olgan holda), (chet el valyutasida ochilgan bank kartalariga tadbqiq etilmaydi) ochishlari mumkin.

6.15. Xalqaro bank kartasi O'zbekiston Respublikasidan tashqarida foydalanilganida, qabul qiluvchi mamlakatning milliy valyutasiga belgilangan kurs bo'yicha avtomatik ravishda konvertatsiya qilinadi.

6.16. Xalqaro bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida foydalanuvchi tomonidan yozma ravishda e'tiroz bildirilmagan har qanday operatsiyalar amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

6.17. Xalqaro bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bilan bog'liq nizolar, shu to'lov tizimi qoidalari asosida ko'rib chiqiladi.

6.18. Bank kartalari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat Qoidalari"ga asosan hamda bank kartalari orqali bajariladigan operatsiyalarni cheklash boshqa qonunchilikda ko'rsatilgan hujjatlarga binoan amalga oshiriladi.

6.19. Bank kartasi hisobvarag'idan chiqim qilingan e'tirozli operatsiyalar bo'yicha Foydalanuvchi Bankka yozma e'tiroznoma arizasini taqdim qilishi mumkin.

6.20. Bank Foydalanuvchining arizasi asosida to'lov tizimlarining "Operatsiyalar bo'yicha munozaralarni hal qilish" Qoidalari bo'yicha Foydalanuvchining e'tiroznoma arizasini belgilangan muddatlarda ko'rib chiqadi.

6.21. Bank Foydalanuvchi yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda, operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash (rad etish) huquqiga ega.

6.22. Quyidagi hollarda Foydalanuvchining roziligisiz istalgan bank kartasidan mablag'lar yechib olinadi:

6.22.1. Bank kartasiga noto'g'ri kirim qilingan pul mablag'lari;

6.22.2. Bank kartasi qoldig'idan ortiq amalga oshirilgan operatsiyalar summasi;

6.22.3. Bank tariflariga muvofiq bank komissiyasi.

6.23. Bank kartalarining amal qilish muddati tugashi, yaroqsiz holatga kelishi hamda yo'qotilgan holatlarda Banking Hududiy kompleks xizmat ko'rsatish markazlarida (bundan buyon matnda "HKXKM" deb yuritiladi) va Kompleks xizmat ko'rsatish markazlarida (bundan buyon matnda "KXKM" deb yuritiladi) Foydalanuvchining arizasiga asosan ushbu bank kartalaridagi pul mablag'lari boshqa hisobvarag'larga o'tkaziladi,

shuningdek bank kartalari qayta chiqarilishi mazkur Oferta shartlari asosida amalga oshiriladi.

6.24. Bank kartalari qayta chiqarilishida Foydalanuvchining qayta aksepti talab qilinmaydi.

6.25. Foydalanuvchining bank kartasi, shu jumladan virtual kartasida, oxirgi 12 (o'n ikki) oyda hech qanday amaliyot bajarilmaganda bank kartasi bloklanadi va pul qoldig'i mavjud bo'lmagan taqdirda bank kartasi yopiladi, agar bank kartasida qoldiq mavjud bo'lsa bank kartasidagi pul mablag'i Foydalanuvchining yozma murojaatiga asosan unga tegishli boshqa hisobvarag'iga o'tkaziladi yoki naqd pul beriladi. Foydalanuvchi tomonidan murojaat qilinmagan taqdirda, bank kartasining qoldiq mablag'i harakatsiz hisobvaraqqa belgilangan tartibda o'tkaziladi.

6.26. Bank mijozlarning bank kartasi bloklanganligi to'g'risida SMS-xabarnoma ko'rinishida xabar yuboradi, Foydalanuvchining mobil telefon raqami o'chiq bo'lgani yoki Bankka bergan mobil telefon raqami o'zgarganligi yoki Bankka noto'g'ri mobil telefon raqami taqdim qilinganligi va boshqa xolatlarda Foydalanuvchi SMS-xabarnomani olmaganligi, bank kartasi bloklanishi hamda qoldiq mablag'larni harakatsiz hisobvaraqqa belgilangan tartibda o'tkazilishi to'xtatilmaydi.

6.27. Mijoz o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjati, mobil telefon raqamidagi o'zgartirishlar bo'lgan taqdirda, Bankka o'zi to'g'risidagi aktual ma'lumotlarni o'z vaqtida xabardor qilib borishi lozim.

6.28. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrda 897-sonli qarori 3-bo'lim v bandiga asosan fuqarolarga xizmat ko'rsatishda raqamli servislarning qog'oz nusxalari talab etilmaydi.

6.29. Aliment oluvchi fuqarolarga Majburiy Ijro Byurosi tomonidan elektron ariza yuborilganda Bank ABT tomonidan avtomatik ravishda Uzcard-Duo virtual bank kartasi ochiladi.

6.30. Agar karta bo'yicha operatsiya karta hisobidagi valyutadan boshqa valyutada amalga oshirilsa, pul mablag'larini konvertatsiya (ayirboshlash) to'lov tizimi va/yoki Bank kursi bo'yicha karta bo'yicha operatsiya amalga oshirilgan kunda hamda mablag'lar karta hisobidan yechib olingan/karta hisobiga tushirilgan kunda amalga oshiriladi. Bunda karta bo'yicha operatsiya sanasi mablag'lar karta hisobidan yechilgan/karta hisobiga tushirilgan sana bilan mos kelmasligi mumkin. Karta bo'yicha operatsiya sanasida amal qilgan to'lov tizimi/bank kursi mablag'lar karta hisobidan yechilgan/karta hisobiga tushirilgan kundagi to'lov tizimi/bank kursidan farq qilishi mumkin. Shu bois, karta bo'yicha operatsiya amalga oshirilgan sanada bloklangan pul mablag'lari summasi karta hisobidan yechilgan summa bilan farq qilishi mumkin, shuningdek, tovar qaytarilganda/xizmatdan voz kechilganda karta hisobidan yechilgan summa qaytariladigan summa bilan farq qilishi mumkin. Kurs farqi tufayli yuzaga kelgan tafovutlar mijoz tomonidan e'tiroz qilish uchun asos bo'la olmaydi. Bankmijoz tomonidan Tizim orqali amalga oshiriladigan pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha maksimal miqdor limitini belgilash huquqiga ega. Limit miqdori haqida mijoz Tizim orqali pul o'tkazish jarayonida tanishib chiqishi mumkin. Bank mijoz tomonidan Tizim orqali amalga oshiriladigan naqd pul yechib olish bo'yicha maksimal

miqdor limitini belgilash huquqiga ega. Limit miqdori haqida mijoz Tizim orqali pul o'tkazish jarayonida tanishib chiqishi mumkin.

6.31. O'zini o'zi band qilgan fuqarolar uchun ochiladigan bank kartasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrda 885-son "O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Nizomi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qaroriga asosan "22621 O'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bo'yicha majburiyatlari" balans hisobvarag'ida yuritiladi.

6.32. O'zini o'zi band qilgan shaxslarning elektron tijorat doirasidagi faoliyati natijasida pul mablag'lari tarzida olingan daromadlari o'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartasi birlashtirilgan alohida bank hisobvarag'ida hisobga olinadi.

6.33. Bolalar bank kartasi bank karta saqlovchisining 7 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan farzandlariga rozilik arizasi asosida beriladi. Bolalar bank kartasi ariza beruvchining bank karta hisobvarag'iga birlashtiriladi.

6.34. Bank kartalaridan abonentlik to'lovi yechishda to'lov amalga oshirilmagan, bank kartalari balansi manfiy balansga ega bo'lgan hollarda bank kartalari bloklanadi va "Avtoundiruv xizmati orqali to'lovlarni amalga oshirish" tartibiga asosan qarzdorlik undiriladi.

VII. TARAFLAR O'RTASIDA HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

7.1. Foydalanuvchi Bankning amaldagi tariflari asosida barcha ko'rsatilgan xizmat haqlari bilan tanishganligini tasdiqlaydi va mazkur xizmatlarni Bank Tariflari bo'yicha to'lashga rozilik beradi (<https://aloqabank.uz/uz/private/tariffs>).

7.2. Bank tomonidan mazkur Ofertaga asosan ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar oldindan amalga oshirilishi mumkin.

7.3. Foydalanuvchi bank kartasida mavjud mablag'lardan savdo nuqtalarida o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar, elektron to'lov tizimlarining mobil ilovalari (va hokazo) orqali to'lov summasini ko'rsatgan holda bank kartasi SHIR-kodini yoki SMS-xabarnoma orqali kelgan tasdiq kodini tegishli qurilmaga yoki mobil ilovaga kiritish orqali to'laydi.

7.4. Foydalanuvchining ruxsati bilan boshqa shaxslar ham bank kartasidan foydalanishi mumkin. Bank kartasi SHIR-kodi yoki Foydalanuvchining SMS-banking tizimiga ulangan mobil raqamiga SMS-xabarnoma orqali kelgan tasdiq kodi Foydalanuvchi tomonidan boshqa shaxslarga ma'lum qilinishi Foydalanuvchining ruxsati deb hisoblanadi.

7.5. Bank tomonidan mazkur Ofertaga asosan xizmatlar ko'rsatilgandan so'ng Bank Tariflari asosidagi xizmat haqlari Foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladi.

7.6. Ushbu Ofertaning 7.5.-bandiga asosan to'lanmagan xizmat haqlari Bank tomonidan Foydalanuvchining roziligisiz uning har qanday hisobvarag'idan undirib olinadi.

7.7. Bank Tariflarni bir tomonlama o'zgartirish huquqiga ega bo'lib, bunda Bank Tariflarga kiritilgan o'zgartirishlar haqida, ular kuchga kirishidan 10 (o'n) kun oldin, xizmat ko'rsatish punktlarida, shuningdek Bankning internet tarmog'idagi www.aloqabank.uz veb-saytida joylashtirish orqali xabardor qiladi.

VIII. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

8.1. Foydalanuvchining javobgarligi:

8.1.1. Bank karta hisobvarag'ida amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligiga va Bankka taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning to'g'riligiga;

8.1.2. Bank karta hisobvarag'idan noto'g'ri foydalanishi yoki noqonuniy harakatlari natijasida Bankka yetkazilgan zararlarni to'liq qoplanishiga;

8.1.3. Bank kartasi yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida Bankka yozma ariza va/yoki telefon orqali xabar bermasligi oqibatida, bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalarga;

8.1.4. Bank kartasiga o'rnatilgan SHIR-kodni yoki Foydalanuvchining SMS-banking tizimiga ulangan mobil raqamiga SMS-xabarnoma orqali kelgan bir martalik tasdiq kodini va mobil ilovalarga kirish huquqini beruvchi login, parollarni begona shaxslarga taqdim etmaslik va ularni maxfiy saqlashga;

8.1.5. ushbu Ofertaning 8.1.4.-bandiga asosan begona shaxslarga ma'lum qilingan har qanday ma'lumotlar yohud boshqacha usulda bank karta hisobvarag'idagi mablag'larni tasarruf qilish imkonini berganlik oqibatlari uchun shaxsan javob berish;

8.1.6. mazkur Oferta asosida Bank o'z huquq va majburiyatlarini bajarishi munosabati yuzasidan so'ralgan ma'lumotlarning Foydalanuvchi tomonidan real vaqt rejimida taqdim etilmasligi yoki yolg'on ma'lumot berilganligi natijasida Bankka zarar yetkazilganligi bo'yicha javobgar hisoblanadi.

8.2. Bankning javobgarligi:

8.2.1. Bank kartasi hisobvarag'i bo'yicha noto'g'ri yoki xato bajarilgan to'lovlar uchun, bunda, noto'g'ri yoki xato bajarilgan to'lovlarni bekor qilinishi bilan Bankning javobgarligi cheklanadi;

8.2.2. Elektron to'lovlarni amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan muddatlari Bank tomonidan buzilgan taqdirda, u Foydalanuvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan elektron to'lovning 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan elektron to'lov summasining 10 (o'n) foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

8.3. Bank quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod etiladi:

8.3.1. Xalqaro va mahalliy to'lov tizimida, shuningdek banklararo elektron to'lov tizimlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilishlarda;

8.3.2. uchinchi shaxslar tomonidan Bank kartalariga xizmat ko'rsatilishi rad etilganda;

8.3.3. Bank kartasiga bog'liq ma'lumotlar (SHIR-kod, SMS-xabarnoma orqali kelgan kod va boshqalar) Foydalanuvchi tomonidan uchinchi tarafga ma'lum qilinganligi sababli vujudga keladigan oqibatlar uchun;

8.3.4. Bank kartasiga kirim qilingan pul tushumlari, shuningdek, Bank kartasi orqali amalga oshirilgan to'lov maqsadlari va xarid qilingan tovar, ish (xizmat) sifatiga;

8.3.5. Foydalanuvchi manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan darajadagi uchinchi shaxslar tomonidan bank kartasi orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarga o'atilgan limitlar, cheklovlar va boshqa to'lovlar;

8.3.6. Foydalanuvchi tomonidan Oferta shartlari buzilganda yoki Foydalanuvchi tomonidan noqonuniy harakatlar sodir qilinganda;

8.3.7. Bank kartasi egasining ruxsatisiz yoki bank kartasi yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida Bankka yozma ariza taqdim qilinishidan oldin bank kartasi bo'yicha operatsiyalar bajarilganda.

8.4. Yengib bo'lmaydigan va Taraflar imkoniyatidan tashqari to'siqlar (fors- major) vujudga kelganda Taraflar majburiyatlardan qisman yoki to'liq ozod etiladi.

Bunday favqulodda hodisalarga quyidagilar kiradi: suv toshqini, yong'inlar, zilzila, portlash, to'fonlar, tuproqning cho'kishi, epidemiyalar hamda boshqa tabiiy ofatlar, davlat organlarining qarorlari, shuningdek urushlar yoki urush harakatlari.

8.5. Foydalanuvchi yoki u bilan munosabatga kirishgan shaxs xatti-harakatlari yuzasidan tegishli tashkilotlar tomonidan Foydalanuvchiga yoki u bilan munosabatga kirishgan shaxsga qo'llanilgan har qanday choralar, jumladan sanksiyalar (tegishli ro'yxatlar, OFAC, Yevropa Ittifoqining MAR va OFSI, SDN va CARTA sanksiyalari) shuningdek, sanksiyalar oqibatida vujudga keladigan har qanday turdagi zararlar uchun bank o'z majburiyatlarini bajarganligi yoki lozim darajada bajarmaganligidan qat'iy nazar javobgar hisoblanmaydi.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLARI.

9.1. Oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda, Tomonlar, boshqa narsalar qatori, amaldagi korrupsiyaga qarshi qonunchilikka rioya qilinishini ta'minlaydilar, ular, ularning xodimlari, filiallari, foyda oluvchilari va Ofertani bajarish uchun jalb qilingan biznes sheriklari, vositachilari, pudratchilari yoki agentlari poraxo'rlik, tijorat poraxo'rliqi, poraxo'rlikda vositachilik qilish, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xodimiga poraxo'rlik qilish yoki amaldagi qonunchilik va jinoyatlardan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirish bo'yicha xalqaro hujjatlarda nazarda tutilganidek, korrupsiya va ushbu qoidabuzarlikka qarshi kurashish maqsadida Ofertaning boshqa buzilishi kabi xatti-harakatlarni sodir etmasliklarini (yoki harakatsizlikdan tiyilmasliklarini) kafolatlaydilar.

9.2. Tomonlar har qanday shaxslar uchun yoki ulardan pul, boshqa qimmatbaho buyumlar, mulk, mulk huquqlari yoki boshqa moddiy va/yoki nomoddiy foydalarni taklif qilish, va'da qilish, berish, so'rash, olishga rozilik berish yoki ularni asossiz ustunlikka erishish yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga, shu jumladan Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarda shaffoflik va ochiqlik tamoyillariga zid bo'lgan maqsadlarga erishishga majburlash maqsadida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali taklif qilishdan, va'da qilishdan, berishdan, so'rashdan, olishga rozilik berishdan

yoki olishdan tiyilishlari shart. Tomonlar bunday harakatlarning oldini olish choralarini ko'rishga kafolat beradilar.

9.3. Tomonlar ushbu Ofertaning korrupsiyaga qarshi qoidalarini Tomonlar, xodimlar, foyda oluvchilar, filiallar yoki ular tomonidan Ofertani bajarishga jalb qilingan boshqa shaxslar tomonidan shubhali yoki potentsial buzilish holatlari haqida bir-birlarini yozma ravishda (shu jumladan korporativ elektron pochta orqali) ochiq va tezkor ravishda xabardor qilish majburiyatini oladilar.

9.4. Bundan tashqari, agar Tomonlardan biri amaldagi qonunchilikning va/yoki ushbu Ofertaning korrupsiyaga qarshi qoidalarini buzish boshqa Tomon, uning xodimlari, foyda oluvchilari, filiallari yoki Ofertani bajarishga jalb qilingan boshqa shaxslar tomonidan sodir etilgan yoki sodir bo'lishi mumkinligiga shubha qilish uchun asosli asoslarga ega bo'lsa, ushbu Tomon so'rov olingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida unga qoidabuzarlikni rad etuvchi yoki tasdiqlovchi izohlar va ma'lumotlar/hujjatlarni so'rab yozma so'rov yuborish huquqiga ega.

9.5. Tomonlar, agar Tomonlardan biri ushbu Bob talablariga rioya qilmasa yoki boshqa Tomon belgilangan muddat ichida qoidabuzarlik sodir bo'lmaganligi yoki sodir bo'lmashligi va Tomon korrupsiya xavfini kamaytirish choralarini ko'rganligi to'g'risida tasdiq olmasa, boshqa Tomon ushbu Ofertani bir tomonlama bekor qilish va uning bajarilishini to'xtatib turish huquqiga ega ekanligiga kelishib oldilar.

9.6. Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha Ofertani bir tomonlama bekor qilishni so'ragan Tomon tomonidan yetkazilgan zararlar uchun kompensatsiya ushbu Ofertaning tegishli moddasida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Biroq, ushbu bob majburiyatlarini buzgan Tomon Ofertani bunday bir tomonlama bekor qilish natijasida yetkazilgan zararlar uchun kompensatsiya talab qilishga haqli emas.

9.7. Agar Oferta Tomoni ushbu Oferta va/yoki amaldagi qonunchilikning korrupsiyaga qarshi kurash qoidalariga zid bo'lgan xodimlarning harakatlariga, shu jumladan korrupsiyaga qarshi qonunbuzarliklarni sodir etishga majburlash holatlariga duch kelsa, Tomon bu haqda boshqa Tomonga rasmiy aloqa kanallari orqali xabar berishi kerak.

X. MAXFIYLIK

10.1. Foydalanuvchi ushbu Oferta bo'yicha axborotni kredit byurosiga va garov reyestriga, skoring kompaniyasiga, mobil aloqa operatoriga, sug'urta kompaniyasiga yoki boshqa uchinchi shaxslarga berishga, shuningdek xizmatlarni amalga oshirishga va sifatini yaxshilash maqsadida shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish, foydalanish va uchinchi shaxsga taqdim etishga rozilik bildiradi.

11.2. Bank talab qilish huquqidan uchinchi shaxs foydasiga voz kechishi holatida, ushbu Oferta bo'yicha barcha ma'lumotni taqdim etishi mumkin.

XI. OFERTAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH IMKONIYATI VA TARTIBI

11.1. Bank Oferta shartlariga bir tomonlama o'zgartirish kiritish huquqiga ega bo'lib, Foydalanuvchiga xabar yuborish orqali Ofertaga o'zgartirish kiritilishi haqida xabardor etadi.

11.2. Foydalanuvchi Ofertaga o'zgartirish kiritishga rozi bo'lmagan taqdirda, o'zining rozi bo'lmasligi haqida xabarni yuborishi lozim.

11.3. Ofertaga o'zgartirish kiritishga rozi emasligi haqidagi xabarni yuborgandan keyin, Taraflar 10 (o'n) kalendar kun muddat ichida o'zaro hisob-kitob qilishi shart.

XII. OFERTADAN VOZ KECHISH SHARTLARI

12.1. Bank bir taraflama biror-bir majburiyatsiz Oferta shartlarini bajarishdan voz kechish huquqiga ega.

12.2. Bank Foydalanuvchiga xabar yuborish orqali xizmat korsatishdan voz kechish haqida bildiradi.

12.3. Foydalanuvchi 2 (ikki) kun davomida Oferta shartlarini bajarishdan bir tomonlama voz kechish haqidagi xabariga javob bermagan taqdirda, Foydalanuvchi Ofertani bajarishdan bir tomonlama voz kechish haqidagi xabarni qabul qilgan deb hisoblanadi.

12.4. Ofertani bajarishdan bir tomonlama voz kechish haqidagi xabarni yuborgandan keyin 3 (uch) kalendar kun o'tganidan so'ng, Oferta Bankning biror-bir majburiyatlarisiz bekor qilingan deb hisoblanadi.

12.5. Foydalanuvchi Ofertani bir tomonlama bekor qilishni istagan taqdirda, u Bankka bu haqida yozma xabarni yuboradi.

12.6. Oferta Foydalanuvchi tomonidan faqat Oferta bo'yicha barcha mablag'lar, shu jumladan penya, sarf-xarajatlar, to'langanidan keyin bekor qilinishi mumkin.

12.7. Ofertani bekor qilmoqchi bo'lgan Taraf boshqa Tarafga bekor qilish sanasidan avval 5 (besh) kalendar kun ichida bu haqdagi xabarni yuboradi.

12.8. Bank Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirayotgan operatsiyalarni Foydalanuvchining anketasidagi profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va Ofertani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

XIII. OFERTANING AMAL QILISH MUDDATI

13.1. Mazkur Oferta Foydalanuvchi tomonidan akseptlangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi hamda bank kartasini amal qilish muddatiga qadar amalda bo'ladi.

13.2. Agar, bank kartasi amal qilish muddati tugaguniga qadar oxirgi 1 (bir) yil davomida ushbu bank kartasi orqali hech qanday pul aylanmalari amalga oshirilmagan bo'lsa, Bank tomonidan mazkur Oferta asosida Foydalanuvchiga bank kartasi qayta chiqarilmaydi.

13.3. Oferta Taraflardan birining tashabbusi bilan yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.

13.4. Foydalanuvchining tashabbusi bilan Oferta bekor qilinganida, Oferta doirasida muomalaga chiqarilgan bank kartasi Bankka qaytarilishi lozim.

13.5. Ofertani bekor qilinishi bank karta hisobvarag'ini yopish uchun asos bo'ladi.

13.6. Oferta muddatining tugashi Foydalanuvchini o'z majburiyatlarini bajarishdan va Oferta shartlarini bajarmaslik yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

13.7. Mazkur Ofertada ko'zda tutilmagan barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

XIV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

14.1. Oferta bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar, imkoni boricha, Taraflar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

14.2. Agar Taraflar kelisha olmasa, nizo Bank yoki uning HKXKM/KXKM joylashgan hududning tumanlararo fuqarolik sudida hal etiladi.

XV. OFERTANING BOSHQA SHARTLARI

15.1. Hujjatning elektron versiyasi Bankning ma'lumotlar bazasida saqlanadi.

15.2. Ushbu Oferta doirasida Taraflarga barcha xabarnomalar, Taraflarga xabar berish yoki xabar yuborish uchun manzil yoki telefon raqami deb ko'rsatgan manzilga yoki telefon raqamiga (bundan buyon matnda "Xabar berish uchun manzil" deb yuritiladi) yuboriladi.

15.3. Taraflar "Xabar berish uchun manzil"ni unda xabarlar mavjudligini muntazam ravishda tekshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

15.4. Ushbu Ofertaning 14.3-bandini bajarmaganligi, bajarmagan Tarafni xabarsiz qolganligi to'g'risida davo qilish huquqidan mahrum qiladi.

15.5. O'zining Xabar berish uchun manzili (telefon raqami) o'zgargan taqdirda Foydalanuvchi o'zining yangi Xabar berish uchun manzili to'g'risida ma'lumotni Bankka taqdim qilishi shart.

XVI. BANK HAQIDA MA'LUMOT

16.1. Bank, aksiyadorlik jamiyati shaklidagi yuridik shaxs bo'lib, quyidagi rekvizitlarga ega:

- joylashgan manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, O'qchi ko'chasi, 2-uy, pochta indeksi 100011; - soliq to'lovchining shaxsiy raqami: 200829053; - domen manzili: www.aloqabank.uz.

AT "ALOQABANK"

Manzil: 100011, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, O'qchi ko'chasi, 2-uy

H/v 16103000900000401001

MFO: 00401,

IFUT (OKED): 64190,

STIR (INN): 200829053,
Telefon raqami: (+99871) 230-77-77
Domen manzili: www.aloqabank.uz
Elektron pochta manzili: info@aloqabank.uz

ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА ОБ ОТКРЫТИИ И ОБСЛУЖИВАНИИ БАНКОВСКОЙ КАРТЫ ФИЗИЧЕСКОГО ЛИЦА

Настоящим **АК «Алокабанк»** (далее именуемый «**Банк**») предлагает заключить договор на нижеследующих условиях, при этом акцепт данной Оферты является заключением договора и имеет юридическую силу:

I. ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ И ТЕРМИНЫ

1.1. В настоящей Оферте используются следующие основные понятия и термины.

- **Банк** – Акционерно-коммерческий «Алокабанк».
- **Пользователь** – физическое лицо, акцептующее Оферту и обратившееся через офисы Банка, корпоративный сайт www.aloqabank.uz в сети интернет или приложение «**Zoomrad**» для открытия и пользования услугами банковской карты.
